

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

UDK: 930 (093.2)

ORCID: 0009-0002-1218-4153

FARG‘ONA VODIYSI PAXTACHILIGI TARIXIDA SUG‘ORISHTIZIMINING TUTGAN O‘RNI (KOLONIAL DAVR MISOLIDA)

Mirzayev Avazbek Tolibjonovich

*Andijon davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrasida dotsent v.b,
tarix fanlari falsafa doktori (PhD)
avazbek.mirzaev.1956@mail.ru Тел: +998-91-612-07-18*

Annotatsiya: Maqolada, O‘zbekiston Milliy arxividagi Quva uchastka pristaviini 298-fondi hujjatlari misolida, Rossiya imperiyasining mustamlakasi davrida Farg‘ona viloyatini Andijon va Marg‘ilon uездlarida paxtachilikni rivojlanishida irrigatsiya tizimini tutgan o‘rni tarixining ayrim jihatlari, manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: arxiv, irrigatsiya, texnik, tahlil, sug‘orish, mirob, kanal, arshin, verst, damba, sepoya, inshoot.

МЕСТО СИСТЕМЫ ОРОШЕНИЯ В ИСТОРИИ ХЛОПКОВОДСТВА В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ (НА ПРИМЕРЕ КОЛОНИАЛЬНОГО ПЕРИОДА)

Аннотация: В статье, с источниковедческой точки зрения, анализируются некоторые аспекты истории роли ирригационной системы в развитии хлопководства в Андижанском и Маргиланском уездах Ферганской области в колониальный период Российской империи.

Ключевые слова: архив, ирригация, техник, анализ, орошение, поливальщик, канал, аршин, верста, дамба, сипай, сооружение.

THE PLACE OF THE IRRIGATION SYSTEM IN THE HISTORY OF COTTON GROWING IN THE FERGANA VALLEY (ON THE EXAMPLE OF THE COLONIAL PERIOD)

Annotation: The article, from a source study point of view, analyzes some aspects of the history of the role of the irrigation system in the development of cotton growing in the Andijan and Margilan districts of the Fergana region during the colonial period of the Russian Empire.

Key words: archive, irrigation, technician, analysis, irrigation, irrigator, canal, arshin, verst, dam, sepoy, structure.

KIRISH. Tarixiy manbalardan ma’lumki, Farg‘ona vodiysida azaldan sug‘orma dehqonchilik va suv inshootlari alohida davlat ixtiyorida bo‘lgan. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davriga kelib, Turkiston o‘lkasida sug‘orish tizimi va sug‘oriladigan yer maydonlarini yanada kengaytirish eng dolzarb masalaga aylangan edi.

O‘lkada podsho hukumatining hukmronligi o‘rnatilganidan keyin u sun’iy sug‘orish tarmoqlariga va umuman suvga egalik qildi. Xullas, suv xo‘jaligining barcha tarmoqlari nazoratga olinib, Turkiston general-gubernatorligi qoshida va viloyatlarda yer hamda irrigatsiyaning boshqaruviga alohida mansab lavozimi ta’sis etildi. Sun’iy sug‘orishni tuzatish va tozalash ishlarining butun og‘irligi tamomila aholining zimmasiga tushgan. O‘lkada sun’iy sug‘orish ishlarini boshqarish uchun Turkiston general-gubernatorligi qoshida amaldorlik lavozimi joriy etilgan edi. Viloyatlarda irrigatsiya bo‘yicha boshliq va uning yordamchisi – texniklar bo‘lib, ular uezdlar boshlig‘i bilan birgalikda ish yuritganlar. Bulardan tashqari sun’iy sug‘orish ishlari bilan «ko‘kboshi», miroblar va ariq oqsoqollari shug‘ullanishgan. Chor hukumati ko‘proq xonliklar davridan qolgan sun’iy sug‘orish tarmoqlarini ma’lum darajada kengaytirish va ta’mirlash hisobiga paxtachilikni rivojlantirishga harakat qilgan edi[1.71].

Farg‘ona viloyati harbiy gubernatorining 1885 yil 15-yanvardagi 12-sonli bo‘yruq‘iga asosan, 1885 yil 1-yanvardan viloyatda irrigatsiya boshqarmasi tashkil etilib, bir nafar irrigatsiya mudiri va bir nafar irrigatsiya mudirining o‘rinbosari lavozimi joriy etildi[2.10].

Turkiston general-gubernatori kanselyariyasi bo‘yicha 1887 yil 3-avgustda tuzilgan ma’lumotnomaga kura, Farg‘ona viloyatida asosiy irrigatsiya kanallari va to‘g‘onlarni o‘tkazish hamda ta’mirlash ishlariga 20.000 rubl ajratilgan. Farg‘ona viloyati harbiy gubernatorini ixtiyoriga Andijon uezdida yangi Siza arig‘ini o‘tkazish uchun 3.000 rubl ajratildi[3.3].

XX asr boshlarida podsho xukumati va ayrim tadbirkorlar – konsissionerlar Turkistondagi paxtachilik va irrigatsiyaga qiziqish bildirib boshladi[4.17].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mustamlaka davrida imperiya xukumati Farg‘ona vodiysida paxtachilikni rivojlantirishni sug‘orish inshootlari qurib, yangi yerlarni o‘zlashtirish hisobiga emas, balki mavjud dehqonchilik qilinayotgan yerlardagi boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarini kamaytirish evaziga amalga oshirishga intildi. Shuning uchun ham bu davrda sug‘orish tarmoqlarini tozalash, ta’mirlash, katta suvayirg‘ichlarini qaytadan qurish sohadagi eng muhim va ko‘p, og‘ir mehnat talab qiluvchi tadbir bo‘lib hisoblanadi. Bu davrdagi natural majburiyat esa ko‘p hollarda, asosan aholini majburiy ravishda ishga jalb etish bilan amalga oshirildi[5.119].

Farg‘ona vodiysining paxta yetishtirishga ixtisoslashuvi o‘z navbatida podsho xukumatidan yangi sug‘orish tarmoqlarini qurishni, mavjudlarini ta’mirlashni talab etardi. Rossiya mustamlakasi davri irrigatsiyasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu davrda Farg‘ona vodiysida katta sug‘orish tarmoqlari qurilmagan, ular asosiy diqqat-e’tiborini sobiq xon kanali Ulug‘nor tizimini takomillashtirishga, foydalanish uchun yaroqsiz bo‘lib qolgan Musulmonqul kanalini tiklashga, Kampirravotda vodiyni eng katta sug‘orish tarmoqlari hisoblangan

Shaxrixonsoy va Andijonsoyni muttasil suv bilan ta‘minlash yo‘llarini qidirib topishga qaratdi[6.38].

Farg‘ona vodiysining sug‘orilishi tarixi bo‘yicha mutaxassis – tarixchi olim Sayfiddin Jalilovning yozishicha, rus ma‘muriyatining Farg‘ona irrigatsiyasi sohasidagi dastlabki yirik tadbirlaridan biri shu bo‘ldiki, vodiya eng muhim suv uzeli bo‘lgan Kampirravot to‘g‘onida birinchi marta daryoni jilovlab olish va magistral kanallarni muhofaza qilish uchun yirik choralar ko‘rildi[7.153].

Mazkur maqolada mustamlaka davrida Farg‘ona viloyatidagi paxta maydonlarini sun‘iy sug‘orishda muhim o‘rin egallagan Shaxrixonsoy irrigatsiya tizimini tutgan o‘rni, xususan sepoya to‘g‘onlari masalasini arxiv materiallariga tayanib yoritishga harakat qildik.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Sepoya to‘g‘onlari mahalliy gidrotexnika inshootlari orasida maqsadga va sharoitga ayni muvofiqligi, qurilishining oddiyligi va arzonligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi sharoitida tez oqar tog‘ soylari va daryolarini jilovlash uchun, qirg‘oqlarni suv yuvib ketishidan himoya qilish, suv toshqini vaqtida asosiy suvni to‘sis qolishda sepoya to‘g‘onlari birdan-bir qulay vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sepoya o‘ziga xos yog‘och qurilma – karkas, ya‘ni uya oyoqli, yoki to‘rt oyoqli to‘sin – tirgakdan iboratdir. Kampirravotda Shaxrixonsoy va Andijonsoyni Qoradaryodan ajratib turuvchi butun damba – to‘g‘on sepoyadan iborat edi[8.23].

Har birini uzunligi 7-8 arshin(Arshin, gazcho‘p - Chor Rossiyasida 0, 711 metr ga baravar uzunlik o‘lchovi) keladigan, qalinligi 4 vershok(Vershok – 4,4 sm ga baravar uzunlik o‘lchovi) bo‘lgan to‘rtta yog‘och ustunlarni piramida shaklida bog‘lanishidan sepoya to‘sik(ixota)lar yasaliib, shulardan bir nechta suvga tik holda o‘rnatilgan. Chor ma‘muriyati vakillaridan biri Shaxnazarov A.I. 1898 yilda Qoradaryoda suv ko‘payganida Shaxrixon kanalida sepoya to‘siqlardan qurilgan to‘g‘onlarni ko‘rganligini yozadi[9.100].

O‘zbekiston Milliy arxividagi bir qator fondlarda Shaxrixonsoy, Andijonsoy va Sayram irrigatsiya tizimlarini mustamlaka davrga oid tarixini yorituvchi ko‘plab hujjatlar saqlanadi.

Masalan, Turkiston o‘lkasi Ziroat va Davlat mulklari boshqarmasi huzuridagi irrigatsiya bo‘yicha kichik amaldorni shu boshqarmani boshlig‘iga, Shaxrixonsoy va Andijonsoy irrigatsiya tizimida suv o‘tkazishni holati to‘g‘risida dokladi boshqarmada № 24 raqami bilan 1902 yil 20-iyulda qayd etilib, unda asosiy e‘tibor, Qoradaryodan suvni Shaxrixonsoy va Andijonsoyga taqsimlanishiga qaratilgan.

Shaxrixonsoyda suvni oqishini tartibga soladigan inshootlar – sepoya to‘siqlar(to‘g‘onlar, yarimto‘g‘onlar va dambalar, ya‘ni daryo chetiga va umuman suv havzalari atrofiga tuproq, shag‘al va h.k.dan qurilgan ko‘tarma) 3 verst masofada har joylarda qurilgan. Bu ishlar uchun mazkur yilda aholi tomonidan mablag‘ sarflangan.

Qoradaryodan suvni Shaxrixonsoy va Andijonsoyga taqsimlanishini tartibga solish tartibga solish uchun inshootlar barpo etish bo‘yicha ishlarni amalga oshiradigan ma‘muriyat – bir nafar irrigatsiya bo‘yicha texnik(u har yili yoz oylari mobaynida Kampirravotda vaqtinchalik yashagan, bu tartib 1897 yilda viloyat boshqarmasida shu lavozim joriy etilganidan buyon

davom etadi), bir nafar rus millatiga mansub katta ariq oqsoqol va mahalliy aholiga mansub ikki nafar kichik ariq oqsoqoldan iborat bo‘lgan. Katta ariq oqsoqol Kraff-Korbut, kichik ariq oqsoqollardan biri esa Sadir ismli shaxs bo‘lgan.

Sepoya qurish ishlari ko‘pincha, Kampirravotga yaqin joydagi Sultonobod qishlog‘ida yashovchi tajribali sepoyachilar tomonidan amalga oshirilgan. Suv tez oqadigan va ancha chuqur joylarda balandligi 16 arshinga yetadigan sepoyalar qurilgan.

Shahrixonsoy va Andijonsoy tizimidan sug‘orish ishlarida foydalanadigan barcha aholi o‘rtasida, yog‘och, shox-shabba, poxol va ishchilarni yetkazib berish uchun, natural majburiyat taqsimlangan. Farg‘ona harbiy gubernatorining farmoyishiga ko‘ra, viloyat irrigatsiya ishlari mudiri, ikki nafar irrigatsiya texniklari va pristavdan iborat alohida komissiya, Shahrixonsoy va Andijonsoyni boshlanish qismini tartibga solish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar va joriy yilda sarflangan materiallarni hisob-kitobini tekshirib chiqqan[10.29-33].

Farg‘ona viloyat boshqarmasida 1904 yil 10-fevral kuni № 20 raqami bilan qayd etilib, irrigatsiya bo‘limi mudiri K.N Sinyavskiy tomonidan Farg‘ona viloyati harbiy gubernatoriga taqdim etilgan bildirish xatining mazmuniga ko‘ra, Farg‘ona harbiy gubernatorining 1903 yil 2-noyabrdagi № 586 sonli buyrug‘iga ko‘ra, Shahrixonsoy va Andijonsoyda suv ta‘minotini tartibga solish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarni sonini aniqlash uchun tuzilgan alohida komissiyaning dalolatnomasidagi ma‘lumotlarga asosan, joriy yilda tegishli volostlardan natural majburiyatni o‘tash yuzasidan yetkazib berilishi zarur bo‘lgan materiallar va ishchi kuchini taqsimoti, irrigatsiya bo‘limi mudiri injener K.N Sinyavskiy tomonidan tuzilib, harbiy gubernatorning tasdig‘iga taqdim etilgan.

Mazkur hujjatda, joriy yilda Shahrixonsoy va Andijonsoyda kerakli miqdordagi suvni ushlab turish va tizimni ta‘mirlash bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar haqida bayon etilib, 1903 yilning kuz oylarida katta ariq oqsoqol bilan Qoradaryoning yuqori qismi ko‘zdan kechirilganda, u joyda daryodan Shahrixonsoy va Andijonsoyga suvni taqsimlash uchun sepoya to‘siqlardan barpo etilgan to‘g‘onlarning ayrimlari 1898 va 1899 yillarda qurilgan bo‘lib, ularni ba‘zilari 1903 yilda bo‘lib o‘tgan sel toshqini paytida ishdan chiqqani tufayli, endilikda u joylarda yangi to‘g‘onlarni qurish talab etiladi.

Bu yangidan barpo etiladigan to‘g‘onlar tarkibiga ilgarigidek, terak yog‘ochdan quriladigan sepoya to‘siqlar kirsas, u holda 3-4 yil o‘tgach, bu to‘g‘onlarni yog‘ochlari chirib, o‘n minglab rubl sarflangan mazkur inshootlar yana yaroqsiz holga keladi. 1903 yilda volostlar ma‘muriyatlari pudratchilarga sepoyalar uchun ishlatiladigan yog‘och to‘sinlarni har birini 4.50 rubldan yetkazib berishlikni topshirishgan. Holbuki, shunday hajmdagi qarag‘ay yog‘ochlarini Andijon shahrida ham topish mumkinligi va Sultonobodga yetkazib olib borish arzonga tushishi ta‘kidlanadi. Sepoya uchun, yangi kesilib ishlatiladigan ho‘l terak yog‘ochidan ko‘ra, qarag‘ay yog‘ochini ishlatish afzal bo‘lib, sepoya uchun ishlatilganda qarag‘ayni terak yog‘ochiga nisbatan uch baravar sekin chirishi ta‘kidlangan. Shu sababli, aholiga sepoya qurish ishlari uchun terak emas, balki qarag‘aydan foydalanishni tavsiya etish taklif etiladi. Shuningdek, masalaning iqtisodiy jihatdan afzalligi ham tahlil etilib, taqsimotda belgilangan 4947 dona terak

yog‘ochni har donasi 4.50 rubldan, jami 22261 rublni tashkil etsa, shuncha miqdordagi 15.000 pud qarag‘ay yog‘ochini Sultonobodga yetkazib keltirilishi bilan jami narxi 14.500 rublni tashkil etishi ta‘kidlanadi[11.11].

Marg‘ilon uyezdi boshlig‘ini 1906 yil 3-mart kungi № 31 sonli buyrug‘ida, uezdlar boshliqlar bundan buyon, ariq oqsoqollarga irrigatsiya bo‘yicha amalga oshirgan ishlarini qayd etib boradigan kundalik daftar yuritish majburiyatini yuklashlari, xuddi shu singari qishloq oqsoqollarini ham aholi tomonidan irrigatsiya bo‘yicha natural majburiyatlarni bajarilishini qayd etish kitoblarini majburiy tartibda yuritishlarini ham uezd boshliqlari nazorat qilishlari lozim bo‘lgan. Natijada ariq oqsoqollar va qishloq oqsoqollarini hujjatlarini bir-birlariga taqqoslab, haqiqatda aholi tomonidan natural majburiyatlarni o‘tashda irrigatsiya uchun qancha miqdorda harajat sarflangani aniqlanadi. Mazkur buyruqqa ariq oqsoqollar va qishloq oqsoqollari rioya etilishini nazorat qilish uchastka pristavlari zimmasiga yuklangan[12.24].

Yana bir hujjatga ko‘ra, Quva uchastka pristavi tomonidan 1908 yilda Marg‘ilon uezdini Quva uchastkasida natural majburiyatlarni bajarilishi to‘g‘risida 1909 yil 19-yanvarda hujjatlarni chiqish kitobida 41-raqami bilan qayd etilib, Marg‘ilon uezdining boshlig‘iga yuborilgan ma‘lumotnomani chap tomonidan arab imlosidagi o‘zbek tilida bitilgan matn, varaqni o‘ng qismida esa rus tilidagi tarjimasi berilgan. Ma‘lumotnomada qayd etilishiga ko‘ra, Qo‘qonqishloq, Quva, Qoratepa-Choukent, Shahrixon, Segaza, Asaka volostlarida ya‘ni Quva uchastka pristavi xududida 8 gnafar ariq oqsoqoli va 175 nafar miroblar faoliyat ko‘rsatgan[13.45-46].

Katta ariq-oqsoqollar endilikda mahalliy aholi vakillaridan emas, balki rus millatiga mansub podsho ma‘muriyati amaldorlaridan tayinlanadigan bo‘ldi. Shahrixonsoy irrigatsiya tizimini boshqaruvchisi, katta ariq oqsoqol K. Vasilevskiy ham ana shunday vakillardan biri bo‘lib, uning idorasi Marg‘ilon uezdini Asaka volostida joylashgan edi.

Shahrixonsoy irrigatsiya tizimini boshqaruvchisi, katta ariq oqsoqoli K. Vasilevskiyning Shahrixon volosti bo‘yicha irrigatsiya tizimini holati yuzasidan 1909 yil 24-mart kuni Quva uchastka pristaviga yuborilgan ma‘lumotnomasida ayrim volostlar boshqaruvchilariga Shahrixonsoyni ba‘zi joylarini ta‘mirlashlari to‘g‘risida farmoyish berishlikni pristavdan so‘ragan. Xususan, Shahrixon volostini Segaza volosti bilan chegarasida Shahrixonsoyni 15 sarjin joyda o‘pirilib tushgan o‘ng qirg‘og‘ini tuzatish maqsadida 6 ta sepoya to‘g‘oni qurish uchun toldan 50 dona qoziqlar, 30 dona xoda, 50 ta aravada shox-shabba, o‘tinlar, maysa, 5 ta aravada o‘t-o‘lan, shung‘iya, 2 pud sim hamda 2 kunga (har kunga 75 kishidan) 150 nafar ishchi zarurligi so‘ralgan[14.20].

Marg‘ilon uezdidagi Sayram irrigatsiya tizimining katta ariq oqsoqoli V. Safronovning 1909 yil 2-may kuni jo‘natgan 20-sonli rasmiy bildirgisi, Marg‘ilon uyezdi Quva uchastka pristavini kirish jurnalida 1909 yil 2-may kuni № 918 raqami bilan qayd etilib, unda, “Quva Soybo‘yi” yangi suv taqsimlash maskanida 1-may kuni o‘tkazilgan suvning bir tekisda taqsimotiga, tegirmonlar uchun ko‘ndalang o‘rnatilgan to‘g‘on to‘sqinlik qilgani sababli, tegirmonlardagi to‘g‘onni vaqtinchalik olib tashlangani ta‘kidlanadi[14.38].

XULOSA. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, kolonial davrda irrigatsiya ishlarini harakatlantiruvchi asosiy omil paxta xomashyosiga bo‘lgan ehtiyojning kundan kunga ortib borishi bilan bog‘liq edi. Umuman olganda, 1876-1917 yillarda chor xukumatini Turkistonda irrigatsiya sohasidagi faoliyatini ikkita asosiy davrga bo‘lib izohlash lozim degan xulosaga keldik. Birinchi davr: XIX asrning 80-yillarida qarovsiz qolgan sug‘orish tizimlarini ta‘mirlash va yangilarini barpo etishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi davr: XX asrning birinchi o‘n yilligida irrigatsiya inshootlarini ilmiy-texnikaviy asosda o‘rganish, chertyojlarini asosida murakkab boshqaruvli suv to‘g‘onlar qurish va o‘lchagichlar o‘rnatish, yillik va oylik suv miqdorini o‘lchashni yo‘lga qo‘yishishlari amalga oshirildi. Mavzuga oid arxiv manbalari o‘sha davrda imperiya xukumati Turkiston general-gubernatorligining Farg‘ona viloyatida irrigatsiya tizimini izga tushurish uchun anchagina mablag‘ ajratganini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Зиёев. Ҳамид. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX аср охири – XX аср бошларида). – Тошкент: «Шарк», 2006.
2. O‘zR Milliy arxivi, 19-fond, 1-ro‘yxat, 1469-yig‘majild.
3. O‘zR Milliy arxivi, 1-fond, 5-ro‘yxat, 297-yig‘majild.
4. Ирригация Узбекистана. В 4-х томах. Т.2., Т.: «Фан», 1975.
5. Насриддинов Қ. Фарғона водийсининг суғорилиш тарихи. – “Янги аср авлоди”, 2009 йил.
6. Насриддинов Қ. Мустамлака даврида Фарғона водийси ирригациясининг ҳолати. – “Ўзбекистон тарихи” журнали, 2000 йил, 3-сон.
7. С.Жалилов. Фарғона водийсининг суғорилиш тарихидан. – “Фан”, Тошкент, 1977.
8. С.Жалилов., Қ.Насриддинов. Фарғона водийсининг ирригация техникаси тарихидан. – Тошкент, 2006.
9. Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – Санкт-Петербург, 1908.
10. O‘zR Milliy arxivi, 7-fond, 1-ro‘yxat, 2487-yig‘majild.
11. O‘zR Milliy arxivi, 298-fond, 1-ro‘yxat, 60-yig‘majild.
12. O‘zR Milliy arxivi, 298-fond, 1-ro‘yxat, 78-yig‘majild.
13. O‘zR Milliy arxivi, 298-fond, 1-ro‘yxat, 108-yig‘majild.
14. O‘zR Milliy arxivi, 298-fond, 1-ro‘yxat, 106-yig‘majild.